

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.M.Qandov</b>	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
<b>U.J.Mansurov</b>	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
<b>M.M.Alimova</b>	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi .....	312
<b>J.Museyibzada</b>	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
<b>A.A.Azizov</b>	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida) .....	324
<b>A.T.Ahmedov</b>	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari .....	328
<b>D.A.Urinbayeva</b>	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
<b>T.Ch.Xoliyarov</b>	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi .....	340
<b>X.X.Mamajonov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniyalar imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar .....	347
<b>I.S.Yusupov</b>	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi .....	351
<b>F.K.Jumanazarova</b>	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
<b>U.X.Gulmatov</b>	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni .....	359

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>U.B.Matmurotova</b>	
Badii tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xhatish misolida.....	364
<b>Sh.A.Safarova</b>	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish .....	369
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar .....	374

---

TILSHUNOSLIK

<b>A.B.Uralov</b>	
Til sathlarida nomutanosiblik .....	381
<b>A.Sh.Muxamadiyev</b>	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
<b>Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova</b>	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida .....	393
<b>U.Sh.Turaeva</b>	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
<b>Y.T.Rakhmonkulova</b>	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages .....	401
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli .....	405
<b>M.O.Usarova</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari .....	413
<b>Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова</b>	
Смыковые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер .....	417
<b>B.Q.Nomonov</b>	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



UO'K: 355.35

**MUSTAQILLIK YILLARIDA YOSHLARNI HARBIY KASBGA YO'NALТИРИШДА HARBIY  
VATANPARVARLIK TARBIYASINING O'RNI**

**РОЛЬ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ОРИЕНТАЦИИ МОЛОДЕЖИ  
НА ВОЕННУЮ ПРОФЕССИЮ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ**

**THE ROLE OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION IN THE ORIENTATION OF YOUNG  
PEOPLE TO THE MILITARY PROFESSION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE**

Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna   
Jamoat xavfsizligi universiteti) mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik tizimining mohiyati va mazmuni haqida ma'lumotlar berilgan. Fuqarolarda vatanparvarlik hisini shakllantirish, ularni mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga jaib qilish va vatan himoyasi uchun zarur bo'lgan harbiy ko'nikmalarni rivojlantirishdir.*

**Аннотация**

В данной статье представлена информация о патриотических факторах привлечения молодежи на военную службу в военно-учебных заведениях. Цель статьи – сформировать у граждан чувство патриотизма, вовлечь их в укрепление обороноспособности страны, развить военные навыки, необходимые для защиты Родины.

**Abstract**

*This article provides information about the patriotic factors of attracting young people to the military field in military educational institutions. The purpose of the article is to create a sense of patriotism among citizens, to involve them in strengthening the country's defense capabilities, and to develop military skills necessary for the defense of the homeland.*

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, harbiy ta'lim, vatan himoyasi, harbiy kasb, harbiy xavfsizlik, vatanparvarlik tarbiyasi.

**Ключевые слова:** патриотизм, военное образование, оборона Родины, военная профессия, военная безопасность, патриотическое воспитание.

**Key words:** patriotism, military education, homeland defense, military profession, military security, patriotic education.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatini tinchlikparvarlik yo'lida yuritib, bir vaqtida o'z fuqarolarining xavfsizligi, tinchlik va barqarorligini ta'minlashga katta ahamiyat beradi. Mazkur maqola O'zbekistonning harbiy va vatanparvarlik sohasidagi yo'naliishlari, maqsadlari va amalga oshirilgan chora-tadbirlarini kengroq yoritishga bag'ishlanadi. Mazkur maqsadlarga erishishda mamlakatimiz o'zining boy tarixiy va harbiy merosidan ilhom oladi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda mamlakatimizda harbiy ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarning Vatanga sadoqat va harbiy xizmatga qiziqishini oshirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirildi. Ushbu maqola mazkur jarayonning asosiy yo'naliishlari, amalga oshirilgan chora-tadbirlar va ularning natijalariga bag'ishlanadi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI**

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish va harbiy kasblarni egallash masalalariga katta e'tibor qaratdi. Bu jarayonda davlat rahbarlari va yetakchi mutaxassislarning asarlari, ilmiy tadqiqotlar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar muhim rol o'ynadi. A. Bo'tayevning "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi" o'quv-uslubiy qo'llanmasi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyاسining muhimligi haqida batafsil ma'lumot beradi.

## TARIX

Qo'llanma, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularni jismoniy va ruhiy jihatdan tarbiyalash masalalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu qo'llanma ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini o'tkazish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.<sup>65</sup>, A.R. Mirzayevning "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish jarayonida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari" asari yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalalarini ko'rib chiqadi. Bu asar, yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishni ta'kidlaydi.<sup>66</sup>, K.R. Abdullayevning "Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatida, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari orasida vatanparvarlikni rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarda axborot ta'lim muhitida vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishning metodologik asoslari va amaliy tavsiyalari berilgan.<sup>67</sup> harbiy vatanparvarlikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sen Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-soni Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sen Farmoni, 2019-yil 28-iyundagi "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4375-sen qarori, 2019-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4447-soni qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bo'yicha o'rganilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ruhiy va ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan muhim jarayondir. Bu jarayon yoshlarda zarur hayotiy bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlar hamda mustahkam iroda va yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu tarbiya usullari yoshlarning ongiga, ruhiyatiga va amaliy faoliyatiga chuqur ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lib, ularni jangovar ruhda va fuqarolik fazilatlari bilan boyitadi. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan hisoblanadi: ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag'batlantirish; o'rnak ko'rsatish, shaxsiy namuna va boshqalar.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqotimiz natijasida mamlakatning mudofaa qobiliyatini oshirish, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash hamda yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati bo'yicha quyidagi kompetensiyalar ishlab chiqildi.

Harbiy vatanparvarlik, avvalo, fuqarolarda vataniga muhabbat va sadoqat, tarix va madaniyatga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon, ta'lim tizimi orqali, jumladan mifik tabrlar, kollejlardan va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Vatanparvarlik darslari, tarixiy sanalar va milliy bayramlar nishonlanishi bu jarayonning ajralmas qismidir.

### 1.Ta'lim va tarbiya Dasturlari:

Mustaqillik yillarda maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun qator fanlar va kurslar joriy etildi. Ushbu fanlar vatanparvarlik, milliy qahramonlar va tarixiy voqealarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, yoshlar orasida Vatanga sadoqat va milliy g'urur hissini oshirishga xizmat qiladi. Maktablarda harbiy-vatanparvarlik mavzusida maxsus mashg'ulotlar va tadbirlar o'tkazilishi an'anaga aylandi.

<sup>65</sup> A. Bo'tayev. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o'quv-uslubiy qo'llanma.

<sup>66</sup> A.R. Mirzayev. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish jarayonida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari. Toshkent O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti 2023 yil

<sup>67</sup> K.R. Abdullayev. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish (Axborot ta'lim muhitida) Pedagogika fanlari falsafa doktori ... (PhD) dis. Avtoreferati. 2023 yil

Oliy ta'lif muassasalarasi-Oliy o'quv yurtlarida harbiy vatanparvarlik bo'yicha maxsus kurslar, seminarlar va treninglar tashkil etildi. Bu kurslarda talabalarga Vatanga sadoqat, milliy g'urur, harbiy ta'lif va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar berildi. Oliy ta'lif muassasalarida harbiy fakultetlar va kafedralar tashkil qilinib, talabalarga kasbiy harbiy tayyorgarlik berish ishlari olib borilmoqda.

## 2. Amaliy faoliyat

Harbiy sport musobaqalari-Maktablarda va oliy o'quv yurtlarida harbiy-sport musobaqalari tashkil etildi. Bu musobaqalar yoshlarni jismoniy tayyorgarlik, intizom va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Harbiy-sport musobaqalari yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish va tayyorlashda muhim o'r'in tutadi.

Harbiy lagerlar-Yozgi harbiy lagerlar yoshlarga harbiy xizmatni amaliy o'rganish imkonini beradi. Bu lagerlarda yoshlar harbiy taktika, strategiya va jismoniy mashqlar bo'yicha malakali mutaxassislardan o'quv mashg'ulotlari o'tadilar. Harbiy lagerlar yoshlarning jamoaviy ishlash, hamkorlik va intizom ruhini oshirishga yordam beradi.

## 3. Axborot Texnologiyalari

Multimedia resurslari-mustaqqillik yillaridan harbiy vatanparvarlik mavzusidagi filmlar, videolar va elektron kitoblar yaratilib, yoshlar orasida tarqatilmoqda. Bu resurslar yoshlarning harbiy tarix va milliy qahramonlar bilan tanishishiga yordam berib, ularda Vatanga sadoqat va vatanparvarlik hissini oshirishga xizmat qiladi.

Onlayn kurslar-Internetda maxsus onlayn kurslar va vebinarlar tashkil etilib, yoshlarga harbiy ta'lif va vatanparvarlik mavzusida bilim va ko'nikmalar berildi. Bu kurslar orqali yoshlar masofadan turib harbiy ta'lif olishlari va o'z bilimlarini oshirishlari mumkin.

## 4. Jamoat Tashkilotlari

Volontyorlik va jamoat ishlari-Yoshlar o'rtasida volontyorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni jamoat ishlariga jalb qilish orqali vatanparvarlik hissini oshirish mumkin. Volontyorlik faoliyati yoshlarni jamoatga xizmat qilishga, yordam berishga va mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi.

Yoshlar klublari-maktablar va oliy o'quv yurtlarida maxsus vatanparvarlik klublari tashkil etildi. Bu klublarda yoshlar harbiy ta'lif va vatanparvarlik mavzusidagi tadbirdorda ishtirok etadilar, turli loyihalarni amalga oshiradilar va o'zaro hamkorlikni rivojlantiradilar.

## 5. Respublikaning harbiy tuzilmalari bilan hamkorlik

Harbiy qismlarga ekskursiyalar-Yoshlar uchun harbiy qismlarga ekskursiyalar uyushtirilib, ularni harbiy xizmatning amaldagi faoliyati bilan tanishtirish orqali yoshlarning harbiy xizmatga qiziqishini oshirish mumkin. Bu ekskursiyalar yoshlarning harbiy kasbga nisbatan hurmati va qiziqishini oshiradi.

Harbiylar bilan uchrashuvlar-Yoshlarni harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlarini tashkil qilish va ularning tajribasini o'rganish orqali yoshlarning harbiy xizmatga qiziqishini va vatanparvarlik hissini oshirish mumkin. Bu uchrashuvlar yoshlar uchun ko'plab ijobiy namuna bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu davrda mamlakatimizda harbiy ta'lif va tarbiya tizimi takomillashtirilib, yoshlarning Vatanga sadoqat va harbiy xizmatga qiziqishini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga e'tibor berish orqali mamlakatning mudofaa qobiliyatini oshirish va milliy xavfsizlikni ta'minlashga erishildi. Bu jarayonda ta'lif muassasalar, jamoat tashkilotlari, axborot texnologiyalari va harbiy tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu kabi tashabbuslar yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi va ularda vatanparvarlik hisi bilan bir qatorda, harbiy kasbga bo'lgan intilish va tayyorgarlikni ham rivojlantiradi.

Harbiy vatanparvarlik milliy merosimizning qadimiy tarixi va ma'naviy manbalariga borib ulanadi. Bu mazmunda, harbiy vatanparvarlik qadimiy o'zbek adabiyoti va tarixi manbalaridan biri hisoblangan "Avesto" asarida, shuningdek, mashhur qahramonlik dostonlari bo'lgan "Go'ro'g'li" va "Alpomish"da hamda "Temur tuzuklari", "Mahbub ul-qulub", "Turkiy Guliston yohud axloq" kabi ijtimoiy-axloqiy pandnomalarda keng o'rganilgan. Bu manbalarda harbiy vatanparvarlik g'oyalari, ularning ma'naviy ahamiyati va jamiyatdagi o'rni axloqshunoslik kontekstida muhokama qilingan.

## TARIX

Harbiy vatanparvarlik g'oyalarini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish juda muhimdir. Bu yoshlarda g'urur, or-nomus, sha'n, ishonch va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Yoshlarimizning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida, mazkur qadimiy manbalardagi g'oyalar va fazilatlarini yoshlarga yetkazish zarur.

Bundan tashqari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmuddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarlik qahramonligi va ularning axloqiy ideal sifatida ulug'lanishi ham muhimdir. Ushbu tarixiy shaxslarning vatanparvarlik fazilati bilan bog'liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatları aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish orqali, yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ular hayoti va faoliyati yoshlarga ibrat bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Amir Temurning harbiy strategiyalari va davlat boshqaruvidagi usullari, uning vatanparvarlik tuyg'ulari bilan bog'liq fazilatlari yoshlarimizning ma'naviy kamolotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zahiriddin Muhammad Boburning madaniy merosi va harbiy xizmatlari ham yoshlar uchun ibratli bo'lishi mumkin. Ularning hayoti va faoliyatini o'rganish, yoshlarimizning vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga yordam beradi.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishning ahamiyati katta, chunki bu yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqatli va o'z vataniga bo'lgan muhabbat bilan yashaydigan shaxslar qilib tarbiyalaydi. Quyida bu maqsadga erishishning turli usullari va ularni amalga oshirish yo'llari to'g'risida atroficha ma'lumotlar keltiriladi.

**Tarixiy bilim:** Tarixiy bilim: O'quvchilarni milliy qahramonlar va muhim tarixiy voqealar bilan tanishtirish orqali ularning vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish mumkin. Buning uchun tarixiy adabiyotlarni o'qitish, muzeylar va yodgorliklariga ekskursiyalar tashkil qilish mumkin.

**Teatr va Kino.** Vatanparvarlik mavzusidagi spektakllar va filmlar namoyishi orqali yoshlar ongida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish mumkin. Bu tadbirdorda ishtirok etish yoshlar uchun ma'naviy boylik manbaiga aylanadi

**Vatanparvarlik tadbirdi:** Harbiy sport turlarida ishtirok etish, shuningdek, turli sport musobaqalarida qatnashish orqali yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu musobaqalar yoshlar o'rtasida sog'gom raqobat muhitini yaratadi.

**Harbiy Muzeylar va Yodgorliklar.** Yoshlarni harbiy muzeylar va yodgorliklarga ekskursiyaga olib borish, ularni tarixiy faktlar bilan tanishtirish orqali ularning vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish mumkin. Bu tadbirdor yoshlar uchun o'tmis qahramonlarining jasoratini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi

**Harbiy Xizmatchilar bilan Uchrashuvlar.** Yoshlarni harbiy xizmatchilar va veteranlar bilan uchrashuvlarini tashkil etish, ularning tajribalarini o'rganish orqali yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish mumkin. Bu uchrashuvlar yoshlar uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi.

#### 1-rasm. Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishning usullari.

Yoshlar orasida vatanparvarlik va mas'uliyat hissini oshirish, ularning zarur vaziyatlarda o'z vatanini himoya qilishga tayyor bo'lishiga yordam berish muhim vazifa hisoblanadi. Xalqning tinch

hayoti va mamlakat xavfsizligini ta'minlash, mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'yan yosh mamlakat uchun bu juda dolzarbdir. Bu jarayonda Qurolli Kuchlarimizning tarixiy vazifasi, ya'ni mamlakat mustaqilligini qo'riqlash katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida quyidagicha yozilgan: "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston har bir fuqarosining burchidir." Ushbu prinsip, davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida fuqarolarning faol ishtirokini talab qiladi. Bu burch har bir fuqaroning Vatanga bo'lgan sadoqati, mamlakat kelajagi uchun mas'uliyat hisi va milliy g'ururni o'zida mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasini himoya qilish burchi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bunga harbiy xizmat, fuqarolik himoyasi, ekologik muhofaza va ijtimoiy himoyaga qo'shilish kabi faoliyatlar kiradi. Harbiy xizmat fuqarolarni mamlakat chegaralarini himoya qilishga tayyorlashni o'z ichiga oladi, bu esa O'zbekistonning mustaqilligini va xavfsizligini kuchaytiradi. Fuqarolik himoyasi esa favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilish va zarar ko'rishini kamaytirish choralarini ko'rishni talab etadi. Ekologik muhofaza orqali atrof-muhitni saqlash va tabiyi resurslardan oqilona foydalanish yo'li bilan mamlakatning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Ijtimoiy himoya esa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatda barqarorlik vaadolatni mustahkamlashga yordam beradi. Fuqarolar o'z burchlarini turli ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar orqali ham bajarishlari mumkin. Masalan, soliqlarni vaqtida to'lash, qonunlarni hurmat qilish, jamiyatdagiadolatsizliklarga qarshi turish kabi harakatlar O'zbekistonning kelajagini yanada yorqin va barqaror qilishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning burchi bo'lib, bu ularning Vatanga, uning qonunlari va qadriyatlariga bo'lgan hurmatining ifodasidir. Har bir fuqaro o'z burchini anglagan holda, mamlakatning ravnaqiga hissa qo'shishi lozim. Bu esa, nafaqat jamiyatning, balki har bir shaxsnинг farovonligiga olib keladi.

Yoshlar orasida harbiy ta'lif va vatanparvarlik g'oyalari targ'ib qilish, ularning zarur harbiy bilim va ko'nikmalarini egallashi uchun muhim hisoblanadi. Harbiy qismlarda o'tkaziladigan o'quvjangovar mashqlar va amallarni muntazam takrorlash orqali yoshlar zarur bilim va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu jarayon yoshlarning harbiy sohadagi mahoratini mustahkamlab, vatan himoyasiga tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi.

Shuningdek, yoshlarni milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, chuqur fikrlovchi shaxslar sifatida tarbiyalash ham dolzARB ahamiyatga ega. Vatanparvarlik yuksak insoniy fazilatlar qatorida, Hadisi Sharifda "Vatanni sevmoq – iymondandur" deb ulug'lanadi. Bu o'z navbatida yoshlarda milliy g'urur va ruhiy barkamollikni rivojlantirishga, ularning milliy o'zlikni chuqurroq anglashga intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi.

Yoshlarimiz, o'z xalqining tarixiy merosini qadrlashi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissalarini anglashlari lozim. Bugungi avlodlar o'z meroslarining jahon xalqlari tomonidan tan olinishini qadrlashi kerak, chunki bu meros ularni milliy o'zlikni anglashga va dunyoda munosib o'rin egallahsga undaydi.

O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lif muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon har tomonlama ya'ni nazariy va amaliy bilimlarni o'z ichiga olishi kerak. Bu jarayonda nazariy bilimlar orqali yoshlarimizga vatanparvarlik, milliy g'oya, harbiy tarix va strategiya kabi mavzular bo'yicha chuqur bilimlar beriladi. Amaliy mashg'ulotlar esa yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, jangovar harakatlarga tayyorlash va real vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

## XULOSA

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning bu sohaga qiziqishini oshirish uchun maktabning quiyi bosqichlaridan boshlab boshlang'ich harbiy tayyorgarlik fanini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu fan yoshlarga nafaqat harbiy bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi, balki ularda Vatan himoyasi va milliy g'urur tuyg'ularini ham tarbiyalaydi. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida keltirilgan fikrlar va harbiy urf-odatlar bugungi kunda ham yoshlar uchun qimmatli dars bo'lib xizmat qiladi.

Amir Temur o'z tuzuklarida shunday yozadi: "Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fatf etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, unga uch narsa bilan imtiyoz bersinlar: faxrli xitob, tug' va nog'ora topshirib, uni «bahodir» deb atasinlar; uni davlat va sultanat sherigi (deb) bilib, kengash

## TARIX

majlisiga kirgizsinlar; unga chegara viloyati topshirilsin va o'sha yerlik amirlar unga bo'ysunsinlar. Agar amirlardan qaysi birovi to'rani (xon o'g'lini) yengsa yoki biron amirzodaga shikast yetkazsa, yo biror o'lka xonini mag'lub etsa, uni yuqoridagi tartibda mukofotlasinlar." Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni milliy g'urur va mas'uliyat hissi bilan sug'orishning muhim qismidir. Amir Temuring "Temur tuzuklari" asarida keltirilgan qoidalar va rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar bugungi kunda ham yoshlarga katta ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni harbiy tayyorgarlik fanini o'rganish orqali harbiy sohaga qiziqishini oshirish va ularni Vatan himoyasiga tayyorlash kelajakda mamlakatimizning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi..

Yoshlarimizni harbiy ta'lif va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning milliy g'urur va mas'uliyat hislarini rivojlantirishga, ularning Vatanga bo'lgan sadoqati va himoya qilishga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon har bir fuqaroning mamlakat ravnaqiga qo'shadigan hissasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, natijada jamiyatimiz va mamlakatimizning barqarorligi va farovonligi ta'minlanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. Sharhlar muallifi va tarjimon U.Uvatov. — T.: Kamalak, 1992. — 55-b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-sentabrdagi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-718-sonli Qonuni 13-moddaning birinchi qismi, 30.09.2021-y., 03/21/718/0920-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son qarori.
4. Temur tuzuklari. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. — 64-b..
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: 2008.4-bet.